Jo‘rayeva Muhayyo Abdujalilovna (Toshkent Amaliy fanlar universiteti “Xorijiy til va adabiyot” kafedrasi o‘qituvchisi, Gavhar ko‘chasi, 1, Toshkent, 100149, O‘zbekiston; E-mail: jurayevamuhayyo385@gmail.com; ORCID ID: 0009-0006-4036-6690)

DIALOGIK DISKURSDA QO‘SHMA GAPLARNING SHAKLIY, SEMANTIK VA PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada dialogik diskurs tarkibida uchraydigan qo‘shma gaplarning shakliy tuzilishi, ma’no munosabatlari hamda pragmatik (kommunikativ) vazifalari semantik–pragmatik yondashuv doirasida izchil yoritiladi. Diskurs va qo‘shma gap tushunchalarining nazariy talqinlari asosida dialogik muloqotda gap bloklarining ketma-ketligi, replikalararo bog‘lanish, nutqiy aktlar (lokutiv, illokutiv, perlokutiv) va implikatura kabi hodisalarning qo‘shma gap semantikasi bilan uzviy aloqasi ochib beriladi. Ilmiy adabiyotlarda bildirilgan qarashlar hamda og‘zaki muloqotdan olingan namunalar yordamida dialogik muhitda murakkab sintaktik tuzilmalarning axborot sig‘imi, izohli-kengaytiruvchi imkoniyatlari va muloqot maqsadini ro‘yobga chiqarishdagi roli tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *diskurs, dialogik nutq, qo‘shma gap, nutqiy akt, illokutiv akt, perlokutiv akt, semantik–pragmatik tahlil.*

Жураева Мухайё Абдужалиловна (преподаватель английского языка кафедры иностранных языков и литературы, Ташкентский университет прикладных наук, ул.Гавхар, 1, Ташкент, 100149, Узбекистан; E-mail: jurayevamuhayyo385@gmail.com; ORCID ID: 0009-0006-4036-6690)

СТРУКТУРНЫЕ, СЕМАНТИЧЕСКИЕ И ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ СЛОЖНЫХ ПРЕДЛОЖЕНИЙ В ДИАЛОГИЧЕСКОМ ДИСКУРСЕ

Аннотация. *В настоящей статье последовательно освещаются структурные, семантические и прагматические (коммуникативные) особенности сложных предложений, функционирующих в составе диалогического дискурса, в рамках семантико-прагматического подхода. На основе теоретических интерпретаций понятий дискурса и сложного предложения раскрывается органическая связь семантики сложных предложений с такими явлениями, как последовательность блоков высказываний в диалогическом общении, межрепликовая связность, речевые акты (локутативный, иллокутивный, перлокутивный) и импликатура. С опорой на научные взгляды, представленные в литературе, а также на примеры из устной речи анализируются информационная ёмкость сложных синтаксических конструкций в диалогической среде, их пояснительно-расширительные возможности и роль в реализации коммуникативной цели.*

Ключевые слова: *дискурс, диалогическая речь, сложное предложение, речевой акт, иллокутивный акт, перлокутивный акт, семантико-прагматический анализ.*

Jo‘rayeva Muhayyo Abdujalilovna (EFL teacher at the department of Foreign language and literature University of Tashkent for Applied Sciences, Gavhar Str. 1, Tashkent 100149, Uzbekistan; E-mail jurayevamuhayyo385@gmail.com; ORCID ID: 0009-0006-4036-6690)

STRUCTURAL, SEMANTIC AND PRAGMATIC FEATURES OF COMPOUND SENTENCES IN DIALOGIC DISCOURSE

Annotation. *This article consistently examines the structural organization, semantic relations, and pragmatic (communicative) functions of compound sentences occurring within dialogic discourse from the perspective of a semantic–pragmatic approach. Based on the theoretical interpretations of the concepts of discourse and compound sentence, the study reveals the intrinsic connection between the semantics of compound sentences and such phenomena as the sequence of utterance blocks in dialogic communication, inter-replica cohesion, speech acts (locutionary, illocutionary, perlocutionary), and implicature. Drawing on scholarly views presented in scientific literature as well as examples taken from oral communication, the article analyzes the informational capacity of complex syntactic structures in a dialogic environment, their explanatory and elaborative potential, and their role in achieving communicative goals.*

Key words: *discourse, dialogic speech, compound sentence, speech act, illocutionary act, perlocutionary act, semantic–pragmatic analysis.*

Kirish. Nutqshunoslik va pragmalingvistika doirasida “diskurs” tushunchasi, odatda, faqat so‘zlashuvning ketma-ket bayoni sifatida emas, balki so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasida muayyan vaziyat, ijtimoiy-madaniy fond hamda kommunikativ niyat bilan shartlangan, dinamik ravishda kechadigan murakkab hodisa sifatida talqin etilishi bilan ajralib turadi. Shu bois diskursni faqat matnning struktur xususiyatlari doirasidagina emas, balki uning funksional, pragmatik va kognitiv mezonlari asosida tadqiq etish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb yo‘nalishlaridan biri bo‘lib bormoqda. Binobarin, tilshunoslikka oid darsliklarda diskurs ko‘pincha “nutq, harakat” ma’nosida izohlanib, u lingvistik birliklar tizimi bilan bir qatorda, psixo-

logik va ijtimoiy omillarni ham mujassamlashtiradigan kommunikativ tuzilma sifatida tavsiflanadi; demak, diskurs tahlilida "nima aytildi?" savoli bilan bir qatorda, "nima maqsadda aytildi?" hamda "qanday ta'sir ko'rsatdi?" kabi pragmatik savollar ham markaziy o'rin egallaydi [9].

Mazkur umumiy nazariy fon doirasida dialogik diskurs ikki yoki undan ortiq ishtirokchining muloqoti sifatida, odatda, mavzuiy va mantiqiy yaxlitlikni ta'minlaydigan replikalar zanjiri ko'rinishida namoyon bo'ladi, ya'ni, dialogik matnda bir suhbatdoshning bayoni ikkinchisining gapini izohlaydi, to'ldiradi yoki unga munosabat bildiradi, natijada replikalar alohida-alohida gaplar yig'indisi bo'lib qolmasdan, umumiy kommunikativ vazifa sari yo'naltirilgan nutq bloklari tizimini hosil qiladi [11]. Shunday ekan, dialogik diskursni tahlil qilishda har bir gapning mustaqil semantik qiymati bilan birga, uning suhbat rivojidagi roli, replikalararo bog'lanish mexanizmlari hamda kontekstda yuklaydigan pragmatik "vazifa"si ham e'tibordan chetda qolmasligi lozim.

Tilshunoslikda alohida e'tibor qaratiladigan muhim sintaktik birliklardan biri qo'shma gap bo'lib, an'anaviy sintaksisda u, odatda, til sintaktik sathining "oliy birligi" sifatida talqin qilinadi, chunki sodda gap bir predikativ markazga tayansa, qo'shma gap tarkibida bir necha predikativ markazlar o'zaro turli munosabatlar (tenglik, tobelik, sabab-natija, shart, qarama-qarshilik va boshqalar) asosida bir butun mazmuniy -sintaktik tizimni vujudga keltiradi. Masalan, *Bugun havo sovuq* kabi sodda gapda bitta holat bayon qilinsa, *Bugun havo sovuq, shuning uchun odamlar ko'chaga kam chiqdi* kabi qo'shma gapda sabab–natija munosabati orqali axborot sig'imi kengayib, tinglovchi uchun voqea izohlangan ko'rinishda taqdim etiladi [5],[10].

Ayniqsa, dialogik nutqda qo'shma gaplar, ko'pincha, muloqotning mantiqiy rivojini tezlashtirish, positsiyani asoslash, munosabat bildirish yoki suhbatdoshni muayyan harakatga undash kabi kommunikativ maqsadlarga xizmat qilgani sababli, ularning shakliy, semantik va pragmatik xususiyatlarini uyg'un tahlil qilish zarurati yuzaga keladi [1]. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi ham dialogik diskurs muhitida qo'shma gaplarning aynan shu uch yo'nalishdagi belgilari qanday namoyon bo'lishini ko'rsatish, shuningdek, nutqiy aktlar nazariyasi (J.Austin, J.Searle) hamda o'zbek pragmalingvistik tadqiqotlarida ilgari surilgan yondashuvlar (xususan, Sh.Safarov va boshqalar) bilan bog'liq holda, masalaga ilmiy izoh berishdan iborat [6],[7],[8].

Dialogik diskurs va qo'shma gap. Dialogik diskursni "nutq bloklari jamlanmasi" sifatida tushunish, bir tomondan, dialogning replikalararo izchilligi va mavzu yaxlitligini asoslashga imkon bersa, ikkinchi tomondan, aynan shu tizim ichida qo'shma gaplarning qanday "diskursiv resurs" sifatida ishlashini ko'rsatadi; chunki qo'shma gap, odatda, oddiy xabar berish bilan cheklanmay, qo'shimcha izoh, asos, shart, ehtimol, inkor yoki qarama-qarshi munosabatni ham bir konstruksiya ichida jamlaydi.

Masalan, quyidagi dialogda qo'shma gaplar nafaqat grammatik tuzilma, balki muloqotni boshqaruvchi vosita vazifasini ham bajaradi:

– Agar siz rozi bo'lsangiz, biz hozir boshlaymiz, – dedi u.

– Boshlayvering, men tayyorman, – deb javob berdi suhbatdosh.

Birinchi replika shartli konstruksiya orqali muloyim "taklif-ko'rsatma"ni (direktiv niyatni) yumshatgan bo'lsa, ikkinchi replika qisqa, lekin mazmunan yakunlovchi tasdiq orqali muloqotning keyingi bosqichiga o'tishni ta'minlaydi.

Adabiyotlar tahlili. O'zbek tilshunosligida diskurs nazariyasi va qo'shma gap masalalarini uyg'un ko'rib chiqqan tadqiqotlar mavjud bo'lib, xususan, L.R.Raupova qo'shma gapni diskursning tarkibiy qismi sifatida talqin etar ekan, dialogik diskursda qo'shma gaplarning struktura va semantik imkoniyatlarini izchil yoritadi.[1]. Shuningdek, semantik-pragmatik tahlil doirasida Sh.Safarov, S.Mo'minov, M.Saidxonov, M. Hakimov, A.Pardayev kabi olimlar nutqiy niyat, muloqot vaziyati va sintaktik tuzilma o'rtasidagi bog'lanishni turli materiallar asosida ko'rsatganlari, bu masalaning faqat "grammatika doirasida" emas, balki "kommunikativ amaliyot doirasida" ham tadqiq etilishi lozimligini anglatadi [6].

Tahlil va natijalar. Shu nuqtai nazardan, dialogik diskurs tahlilida gapning "mustaqil ma'nosi" bilan bir qatorda, uning replikalar zanjiridagi vazifasi ham muhim bo'lib, masalan, savol-aniqlashtirish-izoh- kengaytirish kabi mantiqiy ketma-ketlik dialogni tizimli ravishda harakatga keltiradi:

– Imperiya nima degani? – deb so'radim.

– Nega so'rab yotibsiz? – dedi.

– O'zingiz bilgan amaldor oshnam bir kun "Imperiya botib boradi", dedi...

– Uning imperiya degani o'ris podshosining qo'l ostidagi yurtlar...

Bu yerda replikalarning diskursiv qiymati shundan iboratki, har bir navbatdagi gap avvalgisini izohlaydi va semantik bo'shliqni to'ldiradi; demak, qo'shma gaplar ham xuddi shunday vazifada – izohlash, asoslash, dalillash, shart qo'yish, natijaga olib kelish kabi munosabatlarni "bir konstruksiya ichida" tartiblaydigan birlik sifatida ko'riladi [1].

Qo‘shma gaplarning dialogik diskursdagi shakliy xususiyatlari. Qo‘shma gap shakliy jihatdan bir nechta predikativ birliklarning o‘zaro bog‘lanishi asosida yuzaga keladigan sintaktik tuzilma bo‘lib, dialogik nutqda u bog‘lovchilar, intonatsiya, parallel konstruksiyalar, havola bo‘laklar (relativ birliklar), shuningdek, kontekstga tayanuvchi ellipsis (qisqartirish) orqali ham birikishi mumkin [4],[5],[10].

O‘zbek tilida qo‘shma gaplarning shakliy ko‘rinishlari, odatda, bog‘lovchili va bog‘lovchisiz turlarga ajratilishi ma’lum:

Bog‘lovchili qo‘shma gaplar: *Men darsga keldim va mashg‘ulot boshlandi. U tez yurdi, lekin kechikib qoldi.*

Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar: *Havo sovuq edi, odamlar ko‘chaga chiqmay qoldi. Yomg‘ir yog‘di, yerlar loy bo‘ldi.*

Dialogik diskursda esa shakliy vositalarning funksionalligi yanada kuchayadi, chunki replikalar qisqa, tezkor, ko‘pincha, vaziyatga “bevosita bog‘langan” bo‘ladi, shuning uchun bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar ko‘proq “tez javob”, “keskin munosabat” yoki “ketma-ket voqea tasviri”ni berishga xizmat qilishi mumkin, bog‘lovchili qo‘shma gaplar esa, ko‘pincha, muloqotni izchil asoslash, qarama-qarshi munosabatni belgilash yoki tinglovchini muayyan xulosaga yetaklash vazifasini bajaradi.

Bundan tashqari, havola bo‘laklar ishtirokidagi tuzilmalar (*Kim mehnat qilsa, u natijaga erishadi*; *Qaysi kitobni o‘qisang, o‘sha seni o‘ylantiradi*) dialogik nutqda umumlashtirish, qoidalashtirish, baholash yoki “me’yoriy xulosa” chiqarish ohangini kuchaytirishi bilan ahamiyatlidir; chunki bunday shakliy model, ko‘pincha, suhbatda “ishontirish” yoki “ta’sir etish” maqsadiga xizmat qiladi.

Semantik munosabatlar: qo‘shma gap bo‘laklarining mazmuniy bog‘lanishi. Qo‘shma gapning semantik mohiyati, avvalo, uning tarkibiy qismlari orasidagi ma’no munosabatlari bilan belgilanadi, dialogik diskursda esa bu munosabatlar nafaqat grammatik ko‘rsatkichlar (bog‘lovchi, shart shakli, sabab ko‘rsatkichi), balki suhbat mavzusi, vaziyat, oldingi replika mazmuni va umumiy kommunikativ fon orqali ham “faollashadi” [5]. Masalan, *U darsga kech qoldi, ammo o‘qituvchi unga tanbeh bermadi* konstruksiyasida qarama-qarshilik munosabati (kutilgan natija buzilishi) yetakchi bo‘lsa, *Bugun havo sovuq, shuning uchun odamlar ko‘chaga kam chiqdi* misolida sabab-natija munosabati semantik markaz bo‘lib turadi; dialogik muloqotda esa bunday semantik munosabatlar, ko‘pincha, “izoh talab qiladigan nuqta”ni yoritadi va replikalararo mantiqiy ko‘prikni mustahkamlaydi.

Shuningdek, dialogik diskursda qo‘shma gaplar presuppozitsiya va inferensiya mexanizmlarini ham kuchaytiradi, chunki suhbatdoshlar, ko‘pincha, hamma ma’lumotni ochiq aytmaydi, balki muayyan qismini “umumiy bilim” yoki “vaziyat ma’lumoti”ga tayangan holda qoldiradi; natijada tinglovchi semantik bo‘shliqni kontekst orqali to‘ldiradi. Masalan:

– *Bugun hisobotni topshirdingmi?*

– *Hujjatlar hali stolimda.*

Javob shaklan sodda gap bo‘lsa-da, diskursiv ramka doirasida “hisobot hali topshirilmagan” mazmuni implikatura sifatida yuzaga chiqadi, bunda stolimda kabi deyktik birlik “bevosita inkor”ni aytmasdan, tinglovchini natijani mustaqil chiqarishga undaydi, ya’ni semantik mazmun pragmatik yo‘l bilan “tugallanadi” [3].

Nutqiy aktlar va qo‘shma gaplarning kommunikativ vazifasi. Kommunikativ tilshunoslik nuqtai nazaridan gapni faqat shakl yoki lug‘aviy ma’no bilan cheklab bo‘lmaydi, chunki gap bu ayni paytda muloqotda bajariladigan amal hamdir, shuning uchun J.Austin ilgari surgan nutqiy aktlar nazariyasi doirasida har bir gap lokutiv (aytilgan ifoda), illokutiv (bajarilayotgan amal) va perlokutiv (tinglovchida yuzaga keladigan ta’sir) qatlamlar birligida izohlanadi [7],[8]. O‘zbek pragmalingvistikasida ham illokutiv qatlam, ko‘pincha, so‘zlovchining maqsadi va irodasi bilan bog‘langan markaziy komponent sifatida ko‘riladi; demak, dialogik diskursda qo‘shma gaplar aynan shu maqsadni kuchaytiruvchi, aniqlashtiruvchi yoki yumshatuvchi vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Masalan, “Eshikni yop va tashqariga chiq” konstruksiyasida “va” bog‘lovchisi ikki buyruqni bitta kuchli direktiv akt doirasiga birlashtirib, illokutiv bosimni oshiradi, shu bilan birga, shartli qo‘shma gaplar ko‘pincha direktiv niyatni nisbatan muloyim, “kelishuv” shakliga keltiradi. Agar sen kelsang, birga ketamiz – bu yerda shart komponenti (agar sen kelsang) tinglovchi erkinligini saqlagandek ko‘rinadi, ammo natija komponenti (birga ketamiz) so‘zlovchining muloqot maqsadini ochiq belgilaydi, ya’ni, illokutiv niyat “shart” orqali pragmatik jihatdan tartiblangan bo‘ladi [6].

Bundan tashqari, dialogik diskursda qo‘shma gaplar, ko‘pincha, kinoya, qisqa istehzo, so‘z o‘yini yoki aforistik ohang bilan ham uyg‘unlashib, perlokutiv ta’sirni kuchaytiradi, chunki murakkab tuzilma tinglovchini faqat ma’lumot qabul qilishga emas, balki munosabat bildirishga, xulosa chiqarishga yoki pozitsiyani qayta ko‘rib chiqishga undashi mumkin. Ayrim holatlarda esa dialogda ichki nutq elementlari yoki

parallel konstruksiyalar dramatik effektni oshirib, muloqotning ekspressiv qatlamini faollashtiradi. Bunday vaziyatda qo‘shma gap nafaqat “mantiqiy izoh”, balki “uslubiy ta’sir” mexanizmi sifatida ham ishlaydi.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, dialogik diskursda qo‘shma gaplar faqat ko‘p tarkibli sintaktik tuzilma bo‘lib qolmay, balki muloqotning semantik izchilligi va pragmatik samaradorligini ta’minlaydigan muhim diskursiv birlik sifatida namoyon bo‘ladi, chunki qo‘shma gaplarning bo‘laklari o‘rtasidagi sabab-natija, shart, qarama-qarshilik, izohlash kabi munosabatlar dialogning mantiqiy rivojini boshqaradi hamda replikalararo semantik ko‘prikni mustahkamlaydi. Shuningdek, nutqiy aktlar nazariyasi doirasida qaralganda, qo‘shma gaplar illokutiv maqsadni (so‘rash, buyurish, taklif qilish, va’da berish, rad etish va boshqalar) aniqroq yoki ta’sirchanroq ifodalashga xizmat qilishi, perlokutiv jihatdan esa tinglovchini muayyan xulosa va munosabatga yetaklashi mumkinligi ayon bo‘ladi.

Demak, semantik-pragmatik yondashuv dialogik diskursdagi qo‘shma gaplarni “shakl-mazmun-maqsad” uchligi asosida tahlil qilish imkonini berib, qo‘shma gap bo‘laklarining qanday axborot uzatayotgani, u qanday anglanayotgani hamda suhbat kontekstida qanday kommunikativ vazifani bajarishini kompleks tarzda ochib berishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

[1]. Raupova L.R. Qo‘shma gap diskursning tarkibiy qismi sifatida. Monografiya, Toshkent, “MALIK PRINT CO”, 2021, 192-bet.

[2]. Jumaqulova S.X. Illokutiv akt va ularning turlari. “Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar” tezislar to‘plami, 2023.

[3]. Bakhrodova D. Diskursiv-semantik tahlilning nazariy-metodologik asoslari. ”Lingvospektr” jurnali, 2021, 1-son, 38–47; 64–72; 79–83-betlar.

[4]. Nurmonov A. va boshq. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. Morfologiya, Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2001, 500-bet.

[5]. Abdurahmonov G‘. Qo‘shma gap sintaksisi asoslari. Toshkent, “Fan”, 1958, 284-bet.

[6]. Safarov Sh. Nutqiy aktlar va pragmalogiya, Toshkent, “Fan”, 1985, 210-bet.

[7]. Austin J.L. How to Do Things with Words, Cambridge: Harvard University Press, 1962.

[8]. Searle J.R. Speech Acts, Cambridge: Cambridge University Press, 1969.

[9]. Matn tilshunosligi. Darslik, Buxoro, Buxoro davlat universiteti nashri, 2015.

[10]. Ostonov B. Qo‘shma gap tarkibidagi bog‘lovchilar ta’siri. Nukus, Qoraqalpoq davlat universiteti nashriyoti, 2018, 150-bet.

[11]. Makarov M.L. Diskurs nazariyasining asoslari. Moskva, “Gnozis”, 2003, 400-bet.

[12]. Kizi S.B.Y. (2022). Linguo-cultural characteristics of speech etiquette occurring in discourse. Current Research Journal of Philological Sciences, 3(11), p. 59–63.

[13]. Bobojonova S. (2022). Pragmatic interpretation of educational discourse and expression of dialogic discourse in the communication process.

Daulanova Xolida Iskandarovna (filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Profi Universiti dotsenti v.b.; E-mail: daulanovakholida@gmail.com)

INGLIZ GISTOLOGIK TERMINOLOGIYASIDAGI DEVERBAL ASOSLI MURAKKAB TERMINLAR

Annotatsiya. *Jahon tilshunosligida tibbiy terminlar bilan bog‘liq masalalar muhim o‘rin tutadi. Gistologik terminlarning chuqur o‘rganilishi ularni tashkil etuvchi yunon-lotin termin-elementlarini aniq tasniflash, semantik qirralarini ochib berish va termin hosil qilish masalalarini keng yoritish imkonini beradi. Quyidagi maqolada deverbal asosli murakkab terminlarning komponentlari borasida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *terminologiya, gistologiya, tibbiyot, ingliz tili, murakkab termin, yunon-lotin, termin-element, deverbal asos, tahlil.*

Дауланова Холида Искандаровна (доктор философии по филологическим наукам (PhD); и.о. доцент, Profi University)

СЛОЖНЫЕ ТЕРМИНЫ С ДЕВЕРБАЛЬНОЙ ОСНОВОЙ В АНГЛИЙСКОЙ ГИСТОЛОГИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ

Аннотация. *Вопросы, связанные с медицинскими терминами, занимают важное место в мировой лингвистике. Глубокое изучение гистологических терминов позволяет четко классифицировать греко-латинские терминоэлементы, составляющие эти термины, выявляя их семантические аспекты и широко охватывая вопросы терминообразования. В данной статье рассматриваются компоненты сложных терминов с девербальной основой.*

Ключевые слова: *терминология, гистология, медицина, английский язык, сложный термин, греко-латинский, терминоэлемент, девербальная основа, анализ.*